

— QURILISH KOMPANIYASI UCHUN BOSHQARUV TIZIMI

Obyektdan tortib har bir mixgacha — bitta tizimda.

Smeta, ish naryadi, material zayavkasi, pul so‘rovi, to‘lov va hisobot — hammasi bir joyda va bir-biriga bog‘langan. **Kim, qachon, qancha** — har bir amal yozib boriladi.

7

ROL · O‘Z EKRANI BILAN

40+

SOZLANADIGAN HUQUQ

3

TIL: O‘ZBEK, KIRIL, RUS

1

TIZIM · BARCHA OBYEKTLAR

Har kuni beriladigan savollarga — bir necha soniyada javob

Bugun bu savollarga javob topish uchun prorabga qoʻngʻiroq qilinadi, omborchidan daftar soʻraladi, buxgalter Excel qidiradi. Tizimda javob ekranda turadi.

“Bu obyektga bugungacha qancha pul ketdi?” JAVOB Obyekt hisoboti: shartnoma summasi, kirim, xarajat, qarz va bajarilish foizi — real vaqtda.	“Ombordan kim, nimani, qaysi ish uchun oldi?” JAVOB Har bir material harakati ish naryadiga bogʻlangan. Kim soʻradi, kim berdi, kim qabul qildi — hammasi yozuvda.	“Brigadirga qancha avans berildi, qancha ish qildi?” JAVOB Brigadir kartochkasi: bajargan ishlari summasi, olgan avanslari, qoldiq va olgan instrumentlari.	“Smetadan oshib ketdikmi?” JAVOB Har bir ish va material boʻyicha Reja / Fakt / Farq ustunlari. Oshib ketish darhol koʻrinadi.
“Bu pulni kim tasdiqlagan?” JAVOB Har bir soʻrov va toʻlov egasi, sanasi va izohi bilan saqlanadi. Arxiv oʻchmaydi.			

Bitta ish — yetti qadam, uzilishsiz zanjir

Tizimning asosiy g’oyasi shu: har bir qadam oldingisidan tug’iladi. Hech kim qaytadan qo’lda yozmaydi, hech bir summa yo’qolmaydi.

01 Smeta Obyekt va bo’lim bo’yicha ish turlari, hajm va narx. PTO	02 Naryad Smetadan ish yaratiladi, brigadirga biriktiriladi. PRORAB	03 Material so’rovi Shu ish uchun zayavka: omborda nima borligi ko’rinib turadi. OMBORCHI	04 Xarid va qabul Ta’minotchi narx qo’yadi, omborchi naryad bilan qabul qiladi. TA’MINOTCHI · OMBORCHI	05 Pul so’rovi Ish yoki kontragent bo’yicha summa so’raladi. PRORAB	06 To’lov Buxgalter to’laydi — kirim-chiqimga avtomatik tushadi. BUXGALTER	07 Hisobot Naryad hisoboti chop etiladi, obyekt hisoboti PDF bo’lib chiqadi. RAHBAR
---	---	---	--	---	--	---

NATIJA

Bitta ish bo’yicha **reja, material, pul va hisobot** bir-biriga bog’langan — qog’oz va Excel o’rtasida ma’lumot yo’qolmaydi.

Har bir obyekt — o‘zining mini-tizimi

- **Obyekt kartochkasi.** Shartnoma raqami, byudjet, boshlanish va tugash sanasi, holati: boshlanmagan / shartnoma tuzilgan / boshlangan / tugagan.
- **Bo‘limlar (dom, blok, uchastka).** Qavatlar soni, summa, muddat, rasm — yirik obyekt bo‘laklarga bo‘linadi.
- **Yuqorida jonli raqamlar.** Shartnoma byudjeti · Ishlatilgan · Kutilmoqda · Qolgan · Bajarilgan %.
- **Obyekt ichida 8 ta bo‘lim.** Hisobot, Bo‘limlar, Smeta, Ishlar doskasi, Ta‘minot, Ombor, Hujjatlar, Pudratchilar.
- **Hujjatlar shu yerda.** Shartnoma, F-3 hujjatlari, rasmlar va fayllar obyektga biriktiriladi.

OBYEKT SARLAVHASI — NAMUNA

18,4 mlrd SHARTNOMA BYUDJETI	11,9 mlrd ISHLATILGAN
6,5 mlrd QOLGAN	64 % BAJARILGAN

TADBIRKORGA NIMA BERADI

Bir nechta obyektни bir vaqtda yuritganda ham, **qaysi obyekt pul yeyayotgani** bir qarashda ko‘rinadi.

Smeta Excel'da emas, tizimning ichida yashaydi

- **Excel'dan import.** Mavjud smetangizni yuklaysiz, ustunlar tekshiriladi, tasdiqlaysiz — qaytadan terish shart emas.
- **Bo'lim va kategoriya kesimida.** Ish kodi, birlik (m³, m², dona, tonna), hajm, birlik narxi, umumiy summa.
- **Har bir ishga resurs biriktiriladi.** Material, instrument, texnika, ish haqi — qancha kerakligi oldindan belgilanadi.
- **Reja / Fakt / Farq.** Sarflangan miqdor va summa smeta bilan yonma-yon turadi.
- **Excel'ga eksport.** Ustunlarni tanlab, filtrlab, istalgan vaqtda yuklab olish mumkin.

ISH TURI	BIRLIK	REJA	FAKT	FARQ
Monolit beton, 3-qavat	m³	420	402	+18
G'isht terish	m³	180	196	-16
Suvoq ishlari	m²	2 400	1 850	+550

NAMUNA MA'LUMOT

TADBIRKORGGA NIMA BERADI

Smetadan chetga chiqish **obyekt topshirilganda emas, o'sha kuni** ko'rinadi.

Naryadlar doskasi: qaysi ish qay holatda

- **Uch ustun: Yaratildi → Jarayonda → Yakunlandi.** Ustiga arxiv. Ishni sichqoncha bilan surib holatini oʻzgartirasiz.
- **Brigadirga biriktirish.** Muddat, teg, izoh, fayl (Excel, PDF, rasm) — hammasi ish kartochkasida.
- **Qavatlar boʻyicha taqsimlash.** Har bir qavat uchun reja / qabul qilingan / bajarilgan miqdor alohida.
- **Ish ichida pul va material.** Resurs soʻrash, sarflash, qaytarish, berilgan avanslar va ishlatish tarixi.
- **Chop etiladigan naryad hisoboti.** Brigadir F.I.Sh., bajargan ishlari, ishlatilgan materiallar, avanslar, instrumentlar va imzo joylari bilan.

ISHLAR DOSKASI — NAMUNA		
YARATILDI	JARAYONDA	YAKUNLANDI
Suvoq, 4-qavat Aziz aka0 %	Monolit beton, 3-qavat Rustam aka62 % Gʻisht terish, B blok Shuhrat aka35 %	Poydevor, A blok Rustam aka100 %

TADBIRKORGA NIMA BERADI

Obyektga bormasdan, **bugun qaysi brigada nima qilayotganini** ekranda koʻrasiz.

Material zayavkasi — ogʻzaki emas, hujjat boʻlib

Soʻrovlar

OMBORCHI

Omborda nima borligini koʻrib turib soʻraydi: rejada jami, ishlatilgan, qolgan.

Yuborildi

TAʼMINOTCHI

Yetkazib berish sanasi belgilanadi, mahsulot yoʻlda.

Jarayonda

TAʼMINOTCHI

Taʼminlovchini tanlaydi, narx va miqdor kiritadi. Birlik konvertatsiyasi: tonna → kg.

Qabul qilindi

OMBORCHI

Naryad raqami va naryad rasmi biriktiriladi — dalil bilan qabul.

- **Har bir zayavka qaysi ishga tegishli — koʻrinib turadi.** Material “umuman obyektga” emas, aniq naryadga yoziladi.
- **Kutilayotgan soʻrovlar soni menyuda chiqib turadi.** Hech bir zayavka eʼtibordan chetda qolmaydi.
- **Rad etish, arxivlash, izoh.** Nega rad etilgani ham yozuvda qoladi.

TADBIRKORGA NIMA BERADI

“Sement qayoqqa ketdi?” degan savol **bahsga emas, yozuvga** aylanadi.

Ombor: material, instrument, texnika

- **Uchta katalog.** Materiallar, instrumentlar, texnikalar — kod, kategoriya, birlik va rasmi bilan.
- **Har bir resurs bo'yicha 6 ta raqam.** Smeta · Omborda · Jarayonda · Kutilmoqda · Ishlatilgan · Smeta qoldig'i.
- **Material tarixi.** Sana, resurs turi, miqdor, narx, ta'minlovchi va kontragent kesimida to'liq harakat.
- **Instrument kimda ekani ko'rinadi.** Brigadirga berilgan asboblarning uning kartochkasida turadi, qaytarilishi qayd etiladi.
- **Excel import va eksport.** Eski hisob-kitobni yuklash va istalgan kesimni chiqarib olish.

MATERIAL	BIRLIK	OMBORDA	ISHLATILGAN	SMETA QOLDIG'I
Sement M-400	tonna	42	318	64
Armatura Ø12	tonna	6,4	51,2	12,8
G'isht, qizil	dona	18 400	246 000	−4 200

NAMUNA MA'LUMOT

TADBIRKORGA NIMA BERADI

Ortiqcha xarid ham, ishning materialsiz to'xtashi ham **oldindan ko'rinadi.**

Kassa, pul soʻrovlari va kelgusi xarajatlar

- **Kirim-chiqim.** Har bir operatsiya: obyekt, mas’ul shaxs, manba, teg, izoh va biriktirilgan fayl bilan. Balans doim koʻrinib turadi.
- **Koʻp valyuta va konvertatsiya.** Soʻm va dollar bir joyda; konvertatsiya kurs va qoʻshimcha xarajat bilan qayd etiladi.
- **Pul soʻrovlari doskasi.** Kutilmoqda → Tasdiqlandi → Arxiv. Ish, kontragent va texnika boʻyicha uch xil soʻrov.
- **Qism-qism toʻlov.** Soʻraldi / Berildi / Qoldi — har bir qator boʻyicha alohida koʻrinadi.
- **Kelgusidagi kirim-chiqim.** Rejalashtirilgan toʻlovlar, “necha kun qoldi” koʻrsatkichi bilan; vaqti kelganda bir bosishda real operatsiyaga aylanadi.

TURI	IZOH	SUMMA	HOLAT
KIRIM	Buyurtmachi toʻlovi	1 200 000 000	TASDIQLANDI
CHIQIM	Sement — “Qurilish savdo” MChJ	318 000 000	TASDIQLANDI
CHIQIM	Brigadir avansi — Rustam aka	45 000 000	KUTILMOQDA

NAMUNA MA’LUMOT • SUMMALAR SOʻMDA

TADBIRKORGA NIMA BERADI

Kassa qoldigʻi va yaqin kunlardagi toʻlovlar bir ekranda — pul tanqisligi kutilmaganda kelmaydi.

Ta'minlovchilar va pudratchilar bilan hisob-kitob

- **Ro'yxatda to'rt raqam.** Jami · Berilgan · Balans · Qarz — kim bilan qanday hisobingiz borligi bir qarashda.
- **Kontragent kartochkasi.** Zayavkalar (qaysi obyektga nima yuborilgan) va pul tarixi alohida bo'limlarda.
- **Bir nechta kontragentga birdan.** Bitta oynada tanlab pul so'rovi yuborish yoki to'lovni bo'lib berish.
- **Subpudratchilar.** Shartnoma fayli, kelishilgan summa, berilgan, qoldiq, biriktirilgan ish turlari va to'lovlar tarixi.

KONTRAGENT	JAMI	BERILGAN	QARZ
“Qurilish savdo” MChJ	640 000 000	520 000 000	120 000 000
“Beton plyus” MChJ	280 000 000	280 000 000	0
“Alfa montaj” — subpudrat	410 000 000	150 000 000	260 000 000

NAMUNA MA'LUMOT · SUMMALAR SO'MDA

TADBIRKORGA NIMA BERADI

Kimga qancha qarzдорligingiz **daftarda emas, tizimda** — va u har to'lovdan keyin o'zi yangilanadi.

Xodimlar, brigadirlar va oylik hisob-kitobi

- **Foydalanuvchilar.** F.I.Sh., telefon, parol, oylik, biriktirilgan obyektlar, rollar (bir kishida bir nechta), holati.
- **Brigadirlar ro‘yxati.** Ish soni, jami summa, berilgan avans, qoldiq — hammasi bitta jadvalda.
- **Brigadir kartochkasi.** Bajargan ishlari, tranzaksiyalari va olgan instrumentlari.
- **Yillik oylik jadvali.** 12 oy kesimida kimga qancha berilgani; oylikni ro‘yxat bo‘yicha bir oynada to‘lash.

BRIGADIR	ISHLAR	JAMI	AVANS	QOLDIQ
Rustam aka · beton	14	96 400 000	70 000 000	26 400 000
Shuhrat aka · g‘isht	9	52 100 000	52 100 000	0
Aziz aka · suvoq	6	31 800 000	15 000 000	16 800 000

NAMUNA MA’LUMOT · SUMMALAR SO’MDA

TADBIRKORGA NIMA BERADI

Avans va bajarilgan ish **har doim yonma-yon** — ortiqcha berilgan pul o’sha zahoti ko‘rinadi.

Texnika va jihozlar: QR yorliq bilan inventarizatsiya

- **Dona-dona hisob.** Kran, ekskavator, transport, generator, ofis texnikasi — har birida inventar raqami, mas’ul shaxs va joylashuvi.
- **Ko’chirish tarixi.** Qaysi obyektдан qaysi obyektga, kim topshirdi, kim qabul qildi — to’liq zanjir.
- **QR yorliqlar.** Tizim yorliqlarni chiqaradi, chop etib jihozga yopishtirasiz.
- **Telefon kamerasi bilan inventarizatsiya.** Skanerlaysiz — tizim farqlarni o’zi chiqaradi: topilmadi, boshqa joyda, ortiqcha, shikastlangan.
- **Ta’mir jurnali va spisaniye.** Xarajat, keyingi xizmat sanasi va eslatma; hisobdan chiqarish tasdiqlanadi va **DOCX akt** chiqadi.

INVENTARIZATSIYA NATIJASI — NAMUNA

148 TEKSHIRILDI	142 JOYIDA
4 BOSHQA JOYDA	2 TOPILMADI

TADBIRKORG NIMA BERADI

Yillik inventarizatsiya **bir necha kun emas, bir necha soat** — va natija hujjat bo’lib qoladi.

Obyekt bo'yicha moliyaviy hisobot — bir bosishda

- **Asosiy raqamlar.** Shartnoma daromadi, kiritmalar, umumiy xarajatlar, qarz, PTO topshirgan hajm, kontragentlar bo'yicha holat.
- **Diagrammalar.** Xarajatlar va qarzlarni taqsimoti, PTO dinamikasi, kontragentlarni solishtirish.
- **F-3 hujjatlari.** Summa, sana va birlashtirilgan fayl bilan ro'yxatda.
- **PDF yuklab olish.** Butun hisobot bir fayl bo'lib chiqadi — investorga yoki buyurtmachiga yuborishga tayyor.
- **Chop etiladigan naryad hisoboti.** Prorab, omborchi va brigadir imzosi bilan — qog'oz talab qilinadigan joyda ishlaydi.

HISOBOT SARLAVHASI — NAMUNA			
18,4 mlrd		13,1 mlrd	
SHARTNOMA DAROMADI		KIRIM	
11,9 mlrd		1,4 mlrd	
XARAJAT		QARZ	

TADBIRKORGA NIMA BERADI

Oy oxirini kutmasdan, **istalgan kuni obyekt foydali yoki zararli** ekanini bilasiz.

Har bir kompaniya oʻz tartibida ishlaydi

Tizim sizni oʻz qoidasiga majburlamaydi: kim kimdan material yoki pul soʻrashi, kim tasdiqlashi — **sozlamalardan belgilanadi**, dasturchi aralashuvisiz.

Admin RAHBAR • TOʻLIQ NAZORAT	PTO SMETA VA REJA	Prorab OBYEKT • NARYADLAR	Brigadir ISH BAJARISH	Taʼminotchi XARID	Omborchi QABUL VA BERISH	Buxgalter KASSA VA TOʻLOVLAR
Pul nazorati Har bir soʻm qaysi obyektga, qaysi ishga va kim orqali ketgani koʻrinadi.	Material nazorati Zayavkadan qabulgacha — dalil va imzo bilan. Yoʻqolish uchun joy qolmaydi.	Muddat nazorati Reja va fakt yonma-yon; kechikish boshlanishidayoq bilinadi.	Qogʻozdan qutulish Naryad, hisobot, spisaniye akti — tizim oʻzi tayyorlaydi.			